



## NAVOIY MUSAMMATLARIDA TAJNIS SAN'ATI

Urganch davlat universiteti

Adabiyotshunoslik:o‘zbek adabiyoti

yo’nalishi 2-bosqich magistranti

Hamrayeva Matluba

**Annotatsiya:** Hozirgi kunda ulug‘ shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning hayoti va ijodi to‘g‘risida ma’lumotlarga ega bo‘lish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Navoiyning ijodida she’riy janrlarning deyarli barcha turlari mukammallik cho‘qqisiga chiqqan. Ushbu maqolada Alisher Navoiy musammatlaridagi lafziy san`atning keng tarqalgan turlaridan bo`lgan tajnis san’ati va uning turlari tasnif qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** musammat, tajnis, tajnisi tomm, tajnisi zoid, tajnisi xatti, tajnisi muzori’

Ma’lumki, musammat arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, “ipga o‘tkazilgan marvarid” degan ma’noni bildiradi. Musammat deganda, musallas, murabba, muxammas, musaddas, musabba, musamman, mustasne, muashshar shakllarining umumiyligi anglashiladi. Musammat she’r bandlarining baytdan tashqari turlarini anglatuvchi umumiyligi atama hisoblanadi. Manbalarda ilk musammatlar yaratgan shoirlar sifatida Manuchehri Damgoniy (vaf. 1040) va Qatron Tabriziy (XI asr o‘rtalari) nomlari tilga olinadi. Keyinchalik esa Lomeiy Gurgoniy, Abdulvoise, Hoja Imodi Faqeh, Azhariy kabi shoirlar she’riyatida ham musammatlarning go‘zal namunalari yuzaga keladi. O‘zbek mumtoz she’riyatida musammat yozish esa Hofiz Xorazmiy va Gadoiy ijodiyotidan boshlanadi. Shu bilan birga Navoiy ijodida ham musammat janrining mukammal ko‘rinishlarini ko‘rishimiz mumkin. “Favoyid ul kibar” devonidan shoirning o‘z g`azallariga bog`langan ikki



muxammasi, Lutfiy g`azali oltilantirilgan bir musaddas va yana shoirning o`z g`azali sakkizlantirilgan bir musamman o`rin olgan. Demak, Navoiy hammasi bo`lib Mavlono Lutfiy g`azallariga uch muxammas va ikki musaddas va bir musamman bog`lagan. Navoiy o`z g`azallaridan ham ijodiy foydalanib, yangi lirik janrdagi asarlar yaratganligi haqida navoiyshunos A.Abdug`afurov o`z mulohazalarini shunday bayon etadi: "Xazoyin ul- maoniy"dagi qolgan o`n musammat Navoiyning o`z g`azallari asosida yaratilgan. Navoiy birinchi galda o`z zamonasida shuhrat qozongan g`azallarni muxammaslar holiga keltirgan ". **Fikrimizcha, Navoiy ushbu g`azallarda ifodalangan ma`no-mazmunga o`z munosabatini, ehtiromini musammatlar orqali ifodalashni niyat qilgan.** Ushbu ishda **Alisher Navoiy ijodida uchraydigan musammat janri tarkibidagi tajnis badiiy san`ati namunalari bilan tanishamiz.**

Tajnis (yoki jinos) she`r misralarida shakli bir xil yoki bir-biriga yaqin, ammo ma`no jihatdan har xil bo`lgan ikki so`zni keltirib ular vositasida muayyan fikr, lavha yoki timsolni ta`sirchan ifodalash san`atidir. Mumtoz adabiyotda tajnis san`atiga asoslangan she`riy janr ham mavjud bo`lib, bu janr tuyuq deb nomlanishi ko`pchilikka ma`lum. Anvar Hojiahmedov "Mumtoz badiiyat malohati" kitobida tajnisning quyidagi turlarini keltirib o`tadi:

1. Tajnisi tomm
2. Tajnisi murakkab
3. Tajnisi zoyid
4. Tajnisi noqis
5. Tajnisi muzori'
6. Tajnisi aks
7. Tajnisi mukarrar
8. Tajnisi xatti.



Tajnislар со`zlarning shaklan bir xillligi yoxud yaqinligiga ko`ra ikki turlidir. Ikki so`z ham unli, ham undoshlari jihatidan bir-biriga to`la mos tushsa, tajnisi tomm, ya`ni to`liq tajnis deb yuritiladi. Bunga Navoiydan quyidagi baytni misol qilib ko`rsatishimiz mumkin:

*Ochg'och ul yuz shu`lasin mahzun ko`ngul topmay omon,  
Bor edi ul shu`lani ko`rmak hamon, kuymak hamon,  
Sahv edi sendin vafo qilmoq tamanno men hamon,  
Bo`lmag`ay erdi ko`zum o`tlug` yuzing ko`rgan zamон,  
Ishqing o`ti shu`lasi ko`nglumda paydo koshki.*

Ushbu bandda “hamon” so`zi tajnisi tomni hosil qilgan . Chunki mumtoz adabiyotda birinchi misrada takror kelgan hamon –hamon so`zi “xuddi” yuklamasi o`rnida keladi, ya`ni o`xhash demoqchi. Ikkinci misradagi ma`nosи esa biz bilgan “haligacha” ma`nosida kelgan . Ya`ni “Ma`shuqa yuzini ochgach ko`ngil omonlik topmadi. U shu`lani ko`rish kuyish bilan barobar. Men haligacha sendan vafo qilishingni istar edim. Lekin ko`zim yuzingni ko`rgan paytda unday bo`lmadi. Qaniydi ishqing o`ti ko`nglimda paydo bo`lsa.”

Tajnis qo`llangan baytdagi ikki so`z o`xhashlik, yaqinlik bo`lgани holda ma`lum farqlarga ega bo`lsa, bunda tajnisning boshqa turlari hosil bo`ladi.

Navoiy musammatlarida biz ana shunday ma`lum bir jihatlari bilan farqlanuvchi tajnislarni uchratishimiz mumkin. Bulardan biri tajnisi zoyid (orttirilgan tajnis)dir. Bu xil tajnislarda shaklan o`zaro yaqin so`zlarning birida bir-ikki harf ortiqcha bo`ladi, shu harflar tushirib qoldirilsa, so`zning qolgan qismi ikkinchi so`zga har jihatdan mos tushib, tajnisi tom hosil qilishi mumkin. Navoiy musammatlarida tajnisning aynan shu shaklini ko`p uchratamiz. Masalan:

**Rashkdin har dam yaqindur bag`rim erib oqqali ,**

**Yuzingga mashshotavу ko`zgusi mundoq yoqqali,**



Zulfunga mashg`ul erur mashshota zevar toqqali,  
Men yiroqdin jon berurmen toqatim yo`q boqqali,  
Yuzi qattiq ko`zgukim bo`lmish jamoling hamdam.

Baytdagi “oqqali”, “yoqqali”, so`zlari tajnisi zoyidni hosil qilgan. “Yoqqali”, so`zidagi birinchi harfni olib tashlasak, birinchi misradagi oqqali so`zi bilan shakldoshlik yuzaga kelgan. Lirik qahramon yorning pardozi unga yoqqanligi, ya`ni yarashganligi uchun rashkdan erib oqadi, rashki yanada kuchayadi demoqchi.

Yana bir bayt misolida ko`radigan bo`lsak:

Masnadi husn uzra tokim ko`rmisham ul shohni,

Tiyra aylabmen fig`ondin nilgun xirgohni,

Ey sabo, arz ayla nogah ko`rsang ul dilgohni,

Ko`ktadur har dam fig`onim ko`rgali sen mohni .

Da`vii mehringga tonuq tortadurman ohni.

Moh so`zi orqali ham yorni, ham oyni nazarda tutgan. Inson oyni ko`rgan paytda oh chekadi. Moh va oh mantiqan bog`liq. Bu so`zlar ham qofiyadoshlikni, ham tajnisni yuzaga keltiradi. Orttirilgan tajnis, ya`ni tajnisi zoyidni ishlatganining asosiy sababi ham har safar yorni eslaganda dardi yanada ortadi. Navoiy shuning uchun ham aynan tajnisning bu turidan foydalangan bo`lsa ajab emas.

**Tajnisi xatti** “yozuv tajnisi” ma`nosini ifodalovchi bu san`at arab yozuvidagi so`zlarning nuqtalardan tashqari to`la mosligiga asoslanadi, ya`ni ikki so`z arab



yozuvida yozilganida nuqtalari jihatidangina farqlanadi. Masalan, Alisher Navoiyning

Sharbati yuhgil izom erni mayi nobindadur,

Surai “vashshams” tafsiri yuzi bobindadir,

Sharhi mozog`ulbasar nargislari xobindadur,

Laylatul me`rojning sharhi sochi tobindadur,

Qoba qavsayn ittihodi qoshi mehrobindadir.

Misralari bilan boshlanuvchi baytidagi “nobindadur” va “bobindadir” so`zлari birida nuqtaning yuqoriga, birida pastiga qo`yilishi bilan farq qiladi. Ana shunday so`zlarni baytda keltirish san`ati **xattiy tajnis** deb ataladi. Baytda tasavvufiy ma`noni yaqqol ko`rishimiz mumkin. Ishq sharobidan tatib ko`rgan inson uning ta`sirida sarxush. Hatto bu uning yuzida yaqqol aks etgan. Go`yoki “Shams” “Quyosh” surasining tafsiri kabi aniq va ravshandir, demoqchi.

Navoiy musammatlarida uchraydigan tajnisning yana bir turi bu tajnisi muzori'dir. Bu tajnis ham tajnisi zoyid kabi harflar farqi bilan kuzatiladi. Tajnisi zoyidda so`z boshidagi harflar farqlansa, tajnisi muzori'da harflardagi farq so`z o`rtasi va oxirida ham bo`lishi mumkin. Masalan:

Ko`rguzib yuz, ko`ngluma yuz ming jafomu qilmading!

Jism uyidin xasta jonimni jalomu qilmading!

Xotirimni ishq o`tig`a mubtalomu qilmading !

Ishq o`tidin qismatim dardu balomu qilmading!

Dudi birla xonumonimni qoromu qilmading!



Bu baytda “jafomu” va “jalomu” so`zlari tajnisi muzori’ san`atini yuzaga keltirgan. Lirik qahramon agar yorning yuzini ko`rmasa, ko`ngli ozor chekadi va yuz ming jafoga giriftor bo`ladi. Hatto joni jism uyini-da tark etishi mumkin. Yor esa, bunday qilmadi: yuzini ko`rguzib, oshiqni yuz ming jafoga giriftor qildi, jism uyidan shundog`am xasta bo`lgan jonini ayirdi. Shuningdek, birinchi misrada “yuz” so‘zi turli o‘rinlarda 2 xil ma’noda kelib, tajnisi tomm turini hosil qilgan. Bu esa shoirning yetuk so‘z ustasi, mahoratlari ijodkor ekanining yana bir isbotidir.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, musammat janri namunalarini Alisher Navoiyning yuksak badiiy mahoratini yana bir bor ko`rsatib beradi. Musammat janri namunalarida badiiy san`atlarni qo`llash esa shoirning ijodkorlik qobiliyati yuksak ekanligidan dalolat beradi. Alisher Navoiy musammatlarida tajnisning bir necha turlarini qo`llagan, ammo eng ko`p tajnisi tomm hamda tajnisi zoyiddan foydalangan. Bu ham bo`lsa , Navoiyga xos bo`lgan tasavvufiy, badiiy maqsadning ifodasiga mosligida bo`lsa ajab emas. Bu holat mutafakkir shoirimiz, qolaversa, o`zbek tilimizning g`oyatda boyligi va go`zallaigini, shuningdek nozik va teranligini yorqin hamda jonli lavhalarda ifodalashini ko`rsatib turibdi.